(8). Ларина Татьяна Юрьевна, Кудряшов Игорь Александрович. "Модели внутреннего монолога в художественном тексте". Гуманитарные и социальные науки, № 5, 2021, pp. 88–93.

Raximboyeva Mahliyo Omonboy qizi (Adabiyotshunoslik, o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi)

ERKIN SAMANDARNING “SULTON JALOLIDDIN” ROMANIDA QARSHIBEK OBRAZINING BADIIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taniqli ijodkor Erkin Samandarning tarixiy romani bo‘lgan “Sulton Jaloliddin” romanidagi epizodik va faol obrazlardan biri bo‘lmish Qarshibek obrazining badiiy tahlili berib o‘tiladi. Qolaversa, yozuvchining obraz yaratish mahorati, badiiy olami xususida ham fikr yuritamiz.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy prinsip, obrazlilik, tarixiy metod, epizodik obraz, metafora, makon va zamon, badiiy kalorit, ramziy obrazlar va boshqalar.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗА КАРШИБЕКА В РОМАНЕ «СУЛТАН ДЖАЛОЛИДДИН» ЭРКИНА САМАНДАРА

Аннотация. *В данной статье представлен художественный анализ образа Каршибека, одного из эпизодических и активных персонажей исторического романа «Султан Джалолиддин» известного писателя Эркина Самандара. Кроме того, мы также рассмотрим мастерство писателя в создании образов и его художественный мир.*

Ключевые слова: *исторический принцип, образность, исторический метод, эпизодический образ, метафора, пространство и время, художественная калорийность, символические образы и др.*

ARTISTIC ANALYSIS OF THE IMAGE OF KARSHIBEK IN THE NOVEL “SULTAN JALOLIDDIN” BY ERKIN SAMANDAR

Annotation. *This article provides an artistic analysis of the image of Karshibek, one of the episodic and active characters in the novel "Sultan Jaloliddin", a historical novel by the famous writer Erkin Samandar. In addition, we will also consider the writer's skill in creating images and his artistic world.*

Keywords: *historical principle, imagery, historical method, episodic image, metaphor, space and time, artistic calorite, symbolic images, etc.*

Kirish. Erkin Samandar–serqirra ijodkor bo‘lib, u o‘z asarlari bilan Xorazm vohasining takrorlanmas, tarixiy adabiy muhitini shakllantirishga ulkan hissa qo‘shgan. Yozuvchining har bir tarixiy romanida obrazlarning taqdiri makon va zamon bilan bog‘liq, xilma-xil va takrorlanmas. Chunonchi, bosh va epizodik obrazlarning asar davomida psixologik holati, xarakteri yozuvchi tomonidan mahorat bilan yaratilgan. Xususan, “Sulton Jaloliddin” tarixiy romanida ham har bir obraz tarixiylik prinsipi va an`nanalariga asoslangan holda yaratilgan. Ayniqsa, epizodik va to‘qima obrazlarning roli kitobxonni romanni mutolaa qilish jarayonida qiziqtirib qo‘yadi. Deyarli ko‘pchilik obrazlarning nomlari, ismlari joy nomidan, mavqeyidan kelib chiqqan holda ifodalangan. Bu esa, o‘z navbatida, muallifdan tarixiy bilim, zehn va katta mas‘uliyat yukini talab qiladi. Shubhasiz, Erkin Samandar mana shunday ijodkorlarimizdan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur ish borasida mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar ilmiy faoliyat olib bormoqda. Ular, asosan, mazkur romanning til xususiyatlari, folklori, obrazlarning tarixiylik konseptlari xususida fikr yuritishgan. Jumladan, Otajonov Sarvar,[1] Kenjayev Farhod,[2] Masharipova Farida,[3] Omonova Feruzalarning[4] tadqiqot ishlari orqali amin bo‘lamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Erkin Samandar ijodida tarixiy obraz mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Unda ijodkor Vatan tarixiga nazar tashlash yo‘sinidan ham foydalanadi. Mavzuni o‘rganish jarayonida struktural tahlil usuli hamda struktural-analiz tasniflash kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov shunday yozadi: “Tarixiy shaxs yashagan, ishlagan muhitiga ko‘proq e`tibor berish, bizning nazarimizda, yirik siymolar obrazini yaratishning

---

[1] The Use of Analytical Folklore in the Novel “Sultan Jalaliddin” by Erkin Samandar (ushbu ilmiy maqolada Erkin Samandarning tarixiy romanidagi folklor elementlari va ularni ijodiy qo‘llanishi o‘rganilgan).

[2] Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” tarixiy romanidagi obrazlar va ularning tarixiy haqiqat bilan bog‘liqligi haqida ilmiy tahliliy maqola. uzresearchers.com

[3] The Use of Onomastic Units in Erkin Samandar’s “Sulton Jaloliddin” – maqolada tarixiy romandagi onomastik birliklar (ism va joy nomlari)ning tarixiy va madaniy mazmuni ta’riflangan. eprajournals.com

[4] Analysis of artistic tissue images in the work of Erkin Samandar “Sultan Jalaliddin” – maqola Erkin Samandarning tarixiy romanidagi badiiy obrazlarni, shuningdek ularning tarixiy kontekst bilan bog‘liqligini o‘rganadi.

muh im tomonidir".[1] "Tahlilni asarga qaratadigan bo'lsak, Qarshibek Abdul Mahakning qizi Qambarnisoni sevadi bu epizod orqali yozuvchi asarga romantik ruhiyatni singdirgan va asarning o'quvchanligini oshirgan. Bunga o'xshash romantik tasvir endi o'n beshga kirgan Xonsulton va Kubroviya tariqatining yulduzi Majdiddin Bag'dodiy voqeasida ham keltiriladi. Qarshibek –qurolsoz, qurolsoz Abdul Mahakning eng yaqin shogirdi. Ammo to'qima obraz hisoblangan Qarshibek nomi noto'g'ri tanlangan, chunki qarshi nomining kelib chiqishi mo'g'ulcha bo'lib shahar degan ma'noni anglatadi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida qarshi so'zining mo'g'ul tilidan olinganligi va shahar, saroy degan ma'noni anglatishini yozib qoldirgan. Zahiriddin Muhammad Bobur hozirgi Qashqadaryo viloyatining poytaxti Qarshi shahrini mo'g'ul xonlaridan hisoblanmish Kebekxon qurdirganligini ham ta'kidlagan. Eng qizig'i, 1220-yillarda hali mo'g'ullar Xorazmni bosib olmagan va bunday nomlar yerlik aholi ismlariga ko'chib ulgirmaganligi aniq. Bu ism, keyinchalik, mo'g'ullar butun Xorazm davlatini zabt etib, o'troqlasha boshlagandan keyin Qarshibek, ya'ni, yarmi mo'g'ilcha yarmi turkcha nomlar qo'shilib, qarshi-shahar, saroy// bek-beklar avlodidan, hukumdor ma'nolarini biriktiradi va shahar begi degan ma'noni anglatadi. Muallif bu yerda mana shu xususiyatlarini inobga olmagan. Qarshi shahri nomiga to'xtalsak, bu nom mazkur hududga XIV asrda berilgan undan oldin Naxshab, Navkata, Nasaf kabi nomlar bilan atalgan, demak, qarshi nomi berilgan davrning o'ziyoq uning mo'g'ullar bilan bog'liqligini ko'ramiz".[2] Tadqiqotchimiz haqiqatan ham asosli fikrlar keltirgan. Bundan tashqari, asarda Qarshibekning To'g'onbekka ishonchli do'st ekanligini mazkur jumlalar orqali bayon etadi: "Hargiz yerto'ladan chiqa ko'rmang. Qachon chiqursiz, xabar berilur. Qarshi-bek".[3] Qolaversa, Tog'onbek yerto'lada vaqtida tuynukdan xatlar ham tashlab turgan, ya`ni "vafodor xabar-chi" vazifasini ham bajargan. U qisqa va lo'nda edi: "Shul kecha el oyog'i tingan mahal qabriston orqasinda kutgaymen. Avloq yerdan kelgaysiz. Ilojini topub, sarkarda uchun ishlangan shamshirni olib olg'aysiz. Yerto'la og'zida sizlarni o'z odamimiz kutgay. Qarshibek".[4] Romanni mutolaa qilayotgan kitobxon Qarshi-bek va Qambarnisoning sof, samimiy, bolalarcha muhabbatiga havas va e`tibor bilan qaraydi desam mubo-lag'a bo'lmaydi: "Bu kecha Qarshibekning tushiga Qambarniso kirdi. Oq otini yeldirib borayotganmish Qambarniso. Qarshibek o'z otini uning ketidan uchiribdi. Tobora yaqinlashib boribdi. Ammo yetdim de-ganda oq ot bir silkinibdiyu, uchibdi, ketibdi. Qarshibek uni ko'pdan beri sevadi. Zimdan yaxshi ko'radi. Dardi ichida, ichi esa yorilay deydi. Bu shaddod sohibjamolning vasliga yetib bo'larmikan? Agar yetsa, bu yorug' olamda Qarshibekdan baxtli odam bo'lmas. Uning goh-gohi iliq boqib qo'yishlari behudamasdur, mayin so'z qotishlari tagida bir gap yo'q emasdur…".[5] Mazkur badiiy tasvir Qarshibekning psixologik ho-latini to'laqonli ifodalagan. Erkin Samandar nafaqat Qarshibek obrazini deyarli barcha obrazlarning ichki holati va xarakterini yaratishda badiiy psixologizmdan unumli foydalangan. Shu o'rinda badiiy psixolo-gizm terminiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik: "Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kiradi".[6] Olim ta'kidlaganidek, badiiy asar qah-ramonlari mana shu vositalar asosida yaratilsagina qahramon tanasiga ruh, his-tuyg'u singadi. Bu esa yozi-lajak asarning badiiy qimmatini oshiradi. Bizningcha, ham badiiy asarda qahramon ruhiy olami va uning ijodkor qalami bilan chizilgan tashqi qiyofasidagi uyg'un tasvirlar muayyan asarning syujet chizig'ida hara-katlanayotgan obraz qiyofasini aniqlashtiradi. "Badiiy to'qima – bu hayotiy materialni san'at qonunlari aso-sida tartibga solish natijasidir. Asardagi voqelik ijodkor idroki va bahosi bilan belgilangan bo'ladi. Shu sa-babli bir xil mavzu turli yozuvchilarda turlicha badiiy to'qimaga ega bo'ladi"[7].Dilmurod Quronov qarash-lariga ko'ra: "Tarixiy asarda to'qima tarixiy voqelikni inkor etmaydi, balki uning mazmun-mohiyatini chu-qurroq ochishga xizmat qiladi"[8]. Darhaqiqat, romandagi Qarshibek obrazi orqali kitobxonlar Xorazmshoh-lar davri jangchilarining kuch-qudrati, jasorati, matonati, o'tli muhabbatini bemolol anglay olishlari mum-kin.

---

[1]Qo'shchanov M. Ma'no va mezon. Toshkent, "Adabiyot va san'at", 1974, 23-bet.

[2] Kenjayev Farhod Ikram o'g'li, O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 3-bosqich talabasi, "Jaloliddin Manguberdi obraziga yondash to'qima obrazlarning tarixiy haqiqatlarga mushtarakligi, sultonning shoh va shoirligi haqida" nomli maqolasidan.

[3] E.Samandar. Sulton Jaloliddin. T., G'afur G'ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2007, 80-bet.

[4] E.Samandar. Sulton Jaloliddin. T., G'afur G'ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2007, 81-bet.

[5] E.Samandar. Sulton Jaloliddin.T, :G'afur G'ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2007, 92-bet.

[6] D.Quranov. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., Navoiy universiteti, 2018, 112-bet.

[7] D.Quranov. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., Navoiy universiteti, 2018, 112-bet.

[8] D.Quranov. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., Navoiy universiteti, 2018, 112-bet.

Shubhasiz, Qarshibek obrazi vositasida biz kitobxonlar ushbu holatni tasvir eta oldik desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, Erkin Samandar o‘z ijodida, xususan, “Sulton Jaloliddin Manguberdi” romanida tarixiy-haqqoniylik prinsipi yuqori, ayniqsa, Xorazmshohlar davlatining shonli va ayanchli taqdirini ko‘rishimiz mumkin. Romanda tasvirlangan har bir tarixiy obraz to‘laqonli va badiiy me`yorlashtirilgan holda yaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida, tarixnavis qalamkashlardan biri bo‘lmish Erkin Samandarning ijodkorlik qobiliyatini ko‘rsatadi. Erkin Samandar mazkur romanida har bir obrazning turli xil holatini, xarakterini mohirona badiiylashtirib chiza olgan. Xususan, Qarshibek obrazi romanda uch xil vazifada, uch xil xarakterdagi to‘qima qahramon bo‘lib gavdalangan:

1. Qurolsoz.
2. Mohir jangchi.
3. Oshiq.

Yozuvchining ijod laboratoriyasida shunday obrazlar yaratiladiki, u xoh tarixiy, xoh ramziy, xoh hayotiy bo‘lsin, barchasi ijodkorning badiiy niyati va maqasadini ochib berishda bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). D.Quranov. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., Navoiy universiteti, 2018, 112-bet.

(2). E.Samandar. Sulton Jaloliddin. T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2007, 80-bet.

(3). Kenjayev Farhod Ikram o‘g‘li, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 3-bosqich talabasi, “Jaloliddin Manguberdi obraziga yondash to‘qima obrazlarning tarixiy haqiqatlarga mushtarakligi, sultonning shoh va shoirligi haqida” nomli maqolasidan.

(4). Qo‘shchanov M. Ma’no va mezon. Toshkent, Adabiyot va san’at, 1974, 23-bet.

(5). The Use of Analytical Folklore in the Novel “Sultan Jalaliddin” by Erkin Samandar (ushbu ilmiy maqolada Erkin Samandarning tarixiy romanidagi folklor elementlari va ularni ijodiy qo‘llanishi o‘rganilgan).

(6). Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” tarixiy romanidagi obrazlar va ularning tarixiy haqiqat bilan bog‘liqligi haqida ilmiy tahliliy maqola. uzresearchers.com

(7). The Use of Onomastic Units in Erkin Samandar’s “Sulton Jaloliddin” – maqolada tarixiy romandagi onomastik birliklar (ism va joy nomlari)ning tarixiy va madaniy mazmuni ta’riflangan. eprajournals.com

(8). Analysis of artistic tissue images in the work of Erkin Samandar “Sultan Jalaliddin” – maqola Erkin Samandarning tarixiy romanidagi badiiy obrazlarni, shuningdek, ularning tarixiy kontekst bilan bog‘liqligini o‘rganadi.

Matyakubova Surayyo Abdullayevna (Xorazm Ma’mun akademiyasi tayanch doktoranti;
e-mail: matyokubovasurayyo7@gmail.com)

“ZUBDAT UT-TAVORIX” LEKSIKASIDA FE’L SINONIMIYASI: STRUKTUR-SEMANTIK YONDASHUV

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr o‘zbek adabiyoti namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" tarixiy asarida qo‘llanilgan fe’l so‘zlarining sinonimik qatlamlari lingvistik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Asardan olingan kengaytirilgan real parchalar, tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari (H.Dadaboyev, A.O‘razboyev, R.Maxmudov, H.Ne’matov, B.Sultonov, A.Memetov va boshqalar) hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida fe’llarning semantik, stilistik, etimologik va kontekstual xususiyatlari yoritiladi. Etimologik tahlil chuqurlashtirilib, fe’llarning arab, fors-tojik va turkiy tillardan kelib chiqishi, o‘zlashuv jarayoni va sinonimik bog‘lanishlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asarning leksik boyligini, o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlarini va tarixiy matnlarning lingvistik ahamiyatini ochib beradi. Fe’l sinonimiyasi chuqurroq tahlil qilinib, yangi misollar, chastota ko‘rsatkichlari va etimologik izohlar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *fe’l sinonimiyasi, Ogahiy, "Zubdat ut-tavorix", semantika, stilistika, etimologiya, o‘zbek adabiy tili, o‘zlashma fe’llar, arab-fors o‘zlashmalari.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИНОНИМИИ ГЛАГОЛОВ В ИСТОРИЧЕСКОМ ТРУДЕ МУХАММАД РИЗО АГАХИ «ZUBDAT UT-TAVORIX»

Аннотация. *В данной статье проводится глубинный лингвистический анализ слоёв синонимии глагольной лексики, употреблённой в историческом произведении Мухаммад Ризо Агахи XIX века «Zubdat ut-tavorix». На основе расширенных аутентичных фрагментов текста, научных взглядов лингвистов (H.Dadaboyev, A.Urazboyev, R.Maxmudov, H.Nematov, B.Sultonov, A.Memetov и др.) и современных исследований рассматриваются семантические, стилистические, этимологические и*